

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARIDA MIFOLOGIK QARASHLARING TABIAT HODISALARI VA XALQ MAROSIMLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Dehqonova Nilufar

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchraydigan mifologik qarashlar tahlil qilinadi. Asarda tabiat hodisalari – shamol, yomg‘ir, momaqaldiraq, quyosh va oy obrazlarining mifologik talqini hamda ular bilan bog‘liq xalq marosimlari yoritiladi. Shuningdek, turkiy xalqlar dunyoqarashida “yada toshi”, ilon va ajdaho obrazlari bilan bog‘liq e‘tiqodlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida mifologik qarashlarning funksional xususiyatlari – himoya, baraka, qo‘rqitish va ijtimoiy tartibni ta‘minlash kabi vazifalari ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada qiyosiy tahlil orqali turkiy va qo‘shni xalqlar marosim-mifologik qarashlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, Devonu lug‘otit-turk, mifologik qarashlar, tabiat hodisalari, xalq marosimlari, yada toshi, mifologiya.

Аннотация: В данной статье анализируются мифологические воззрения, представленные в произведении Махмуда Кашгари «Девону лугатит-тюрк». В работе освещается мифологическая интерпретация природных явлений – образов ветра, дождя, грома, солнца и луны, а также связанных с ними народных обрядов. Также раскрывается значение верований, связанных с образами «камня яда», змей и драконов, в мировоззрении тюркских народов. В ходе исследования на научной основе объясняются функциональные особенности мифологических воззрений, такие как защита, благословение, устрашение и обеспечение общественного порядка. В статье также посредством сравнительного анализа показаны сходства и различия ритуально-мифологических воззрений тюркских и соседних народов.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, Девону лугатит-тюрк, мифологические воззрения, природные явления, народные обряды, “yada toshi”, мифология.

Abstract: This article analyzes the mythological views found in Mahmud Kashgari's work "Devonu lugatit-turk". The work highlights the mythological interpretation of natural phenomena - images of wind, rain, thunder, sun and moon, and folk rituals associated with them. It also reveals the importance of beliefs related to the images of the "yada stone", snakes and dragons in the worldview of the Turkic peoples. During the study, the functional features of mythological views - such as protection, blessing, intimidation and ensuring social order - are explained on a scientific basis. The article also shows the similarities and differences between the ritual-mythological views of the Turkic and neighboring peoples through comparative analysis.

Key words: Mahmud Kashgari, Devonu lugatit-turk, mythological views, natural phenomena, folk rituals, “yada toshi”, mythology.

Turkiy xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va marosimlari ularning og'zaki ijodi hamda yozma manbalarida o'z ifodasini topgan. Bu jarayonda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar nafaqat lug'aviy manba, balki turkiy xalqlar hayoti, urf-odatlar va mifologik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan ensiklopedik asardir.

Mifologik qarashlar qadim turkiylarning tabiat hodisalarini anglashida muhim o'rin tutgan. Shamol, yomg'ir, momaqaldiraq, oy va quyosh kabi hodisalar ilohiy kuch bilan bog'langan hamda ular bilan turli marosimlar chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, yomg'ir chaqirish marosimlarida "yada toshi"ning qo'llanishi yoki quyosh va oy bilan bog'liq mifologik ramzlarning xalq dunyoqarashidagi o'rni bunga yorqin misoldir.

Shuningdek, "Devonu lug'otit-turk"da uchraydigan ajdaho, ilon, dev kabi obrazlar ham tabiat hodisalari va qadimiy e'tiqodlar bilan uzviy aloqada talqin qilinadi. Bu jarayon turkiy xalqlarning diniy qarashlarini, ijtimoiy hayotini va madaniy an'analarini chuqur o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, yomg'ir, shamol, quyosh, oy, chaqmoq, bo'ron kabi tabiat hodisalari faqat meteorologik tushuncha sifatida emas, balki diniy-mifologik ma'noga ega bo'lgan ramzlar sifatida talqin etilgan. Shu jihatdan, Koshg'ariyning izohlari folklorshunoslar va mifologiya tadqiqotchilari uchun alohida qimmatga ega.

Va albatta, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari mifologik qarashlarning tabiat hodisalari va xalq marosimlari bilan bog'liqligini yoritib, turkiy xalqlar ma'naviy merosini tadqiq etishda bebaho ilmiy manba sifatida qadrlanadi.

Ushbu asarda qadimgi qabilalar turmush tarzi, maishiy-ijtimoiy hayoti bilan bog'liq leksemalar izohini yanada ochib berish uchun Mahmud Koshg'ariy xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangan. Har bir so'zning izohi uchun maqol yoki to'rtliklardan foydalangan. Bu folklor namunalari o'z navbatida o'sha davr insonlarining tasavvuri, tafakkuri, mifologik dunyoqarashini anglashimiz uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, asarda keltirilgan ayrim so'zlar bugungi kunda ham iste'molda bo'lsa, ba'zilar shaklan saqlangan bo'lsa-da, ma'no to'liq saqlanib qolmagan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar folklorining qo'shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlarga oid katta material to'plagan. Shuning uchun ham, "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallarini o'zbek xalq og'zaki ijodi badiiy namunalari bilan qiyosiy o'rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Devonu lug'otit turk" leksikasining o'zbek folkloridagi ko'rinishlariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan Hodi Zarifov: "Devon"dagi leksik va grammatik faktlarni o'zbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, u faktlarning o'zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir,¹ degan edi.

Keng ko'lamli to'plovchilik faoliyatini olib borgan Mahmud Koshg'ariy o'zining ana shu safari chog'ida faqat lug'at uchun lisoniy materiallar to'plash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalari ham yozib olgan. Buni olimning "Men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasaliş xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida

¹ Zarifov H. "Devonu lug'otit-turk" leksikasining o'zbek folklorida ko'rinishiga doir (tezislar) // Po'lkani shoir, - Toshkent: Fan, 1976. - B.96

qo'llanilib kelingan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa o'z navbatida shu tilda so'zlovchilarga yetkazsin".²

Asarda mifologik tasavvurlar bilan bog'liq ko'plab obrazlar, timsollarni uchratishimiz mumkin. "Devon"ni mifologik qatlam jihatidan o'rganish jarayonida kosmogonik va kalendar miqlar bilan birga so'z magiyasi bilan bog'liq mifolegemalarni aniqladik. Ushbu asarda ajdodlarimizning osmon yoritqichlari bilan bog'liq mifologik hamda kosmogonik tasavvurlariga oid qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Olim "Devon"ning 1-jildida "oy" so'ziga izoh berar ekan, "o'n to'rt kunlik oyga "tolun aj (to'lin oy) deyiladi" deb yozadi va "aj tolun bolsa eligin imlamas", ya'ni "Oy to'lin bo'lsa, qo'l bilan imlanmas" maqolini keltiradi ("Devon". 1-tom. B.110-111).

To'lin oy ko'ringan tarafga qarab qo'l bilan imlamaslik tabusi XI asrda ham saqlanib qolgani ham bu tushunchaning xalqning e'tiqodiy qarashlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz oy, quyosh va yulduzlarni muqaddaslashtirganlar va unga topinganlar. Quyosh va oyning kecha-kunduz o'rin almashib turishi, osmon to'la yulduzlarning jilolanib ko'rinishi qadimgi odamning e'tiborini jalb etmay qolmagan. Folklorshunos olim, Mamatqul Jo'rayevning "Hudud al-olam" nomli asardan keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, qadimgi turkiy qavmlar, xususan, chigillar quyosh va yulduzlarga sig'inishsa, tatarlar bu olamda quyoshdan muqaddasroq narsa yo'q deb bilishgan. Bu asarda qirg'izlarning bobokalonlari Zuhra va Mushtariy yulduzlarini muqaddaslashtirganligi haqida ham ma'lumotlar bor.³

N.Ya.Bichurinning ma'lumotlariga qaraganda, qadimgi turkiylar erta tongdan uyidan chiqqach, avvalo ufqdan bosh ko'tarayotgan quyoshga, kechqurun esa oyga ta'zim bajo keltirishni farz deb bilishgan. Uxuanlar esa, o'tovlarining eshigini kunchiqarga qaratib qurishga odatlangan. Shu bilan birga, yer, osmon, quyosh, oy, yulduzlarga, shuningdek, ota-bobolarining arvohlari haqiga qurbonlik qilganlar.⁴

O'tmishda tabiat hodisalarining haqiqiy mohiyatini bilmagan qadimgi odamlar qurg'oqchilik va suvsizlikdan qiynalgan paytlarida muayyan sehrargarlik amallaridan iborat ritual marosimlarni o'tkazib yog'in-sochin va suv ma'budlariga murojaat qilib ulardan madad so'raganlar. Yomg'ir yog'dirish maqsadida o'tkazilgan ana shunday qadimiy marosimlar orasida turkiy qavmlar orasidagi turkiy qavmlar mifologiyasida "yomg'ir toshi" sifatida mo'tabarlashtirilgan "yada toshi" vositasida amalga oshirilgan rituallar alohida o'rin tutadi.⁵ Binobarin, "sehrli" yomg'ir toshi ko'magida shamol, chaqmoq, bo'ron qo'zg'atish, yomg'ir, qor yog'dirish va bemavrid yoqqan yog'ingarchilikni to'xtatish marosimlari ajdodlarimizning tabiat hodisalarini tilsimlashtirish bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari zahirida kelib chiqqan.

Qadimgi turkiylar orasida keng tarqalgan afsonalar talqinicha, "yada" deb ataluvchi rangdor tosh yomg'ir chaqirish xususiyatiga ega deb tasavvur qilingan. Naql qilinishicha,

²Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 1-tom. - Toshkent: Fan, 1960. - B. 47

³"Hudud al-alam". Рукопись Туманского об издус введенеем и указателями В.В.Бартольда. -Л., 1930. С.43, 170.

⁴Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. -М.-Л., 1957. -С.50, 142-144.

⁵Turkiy xalqlarning "yada toshi" bilan bog'liq mifologik tasavvurlari va marosimlari haqida qarang: Malov С.Е шаманский камень "яда" у тюрков Западного Китая // Советская этнография. - М., 1947. - №1; Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - Toshkent: Fan, 1986. - B.57-110; Jo'rayev M. "Yada toshiga qon yetgach..." yoki yomg'ir toshi haqida afsona // Yoshlik. Toshkent, 1991. - 1- son. - B.60-62; Aytmukashova A.A. Лексика обрядового фольклора: идиоэтническая семантика: Автореф.дисс. канд. филол. наук. - Алмата, 2007. - С.26-27; Некоторые малоизвестные сведения про камень яда (камень дожда) у киргизов // fantlab.ru сайтида; Аминев З.Г.Абдулкадир Инан о камне яда и об обрядах вызывания дожда // Ахнаф Харисов и актуальные проблемы башкирской филологии. - Уфа, 2014. - С/249-251.

yog'in-sochin homiylari sharafiga qurbonlik qilingan jonivor qoni surtilgan yada toshini quyoshga qaratib turib afsun o'qilsa yoki suvga solinsa, o'sha zahotiyoyq shamol paydo bo'lib bulutlarni haydab kelar va tezda yomg'ir yog'a boshlar emish.

"Devonu lug'otit-turk"da "yada toshi" bilan bog'liq mifologik tasavvurlar ham keltirilgan. "Devon"ning 3-jildi, 8-sahifasida quyidagilarni o'qiymiz: "Yada- yomg'ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag'molar shahrida o'z ko'zim bilan ko'rdim. U yerda paydo bo'lgan bir yong'inni so'ndirish uchun shunday fol qilinggan edi, Xudoning amri bilan yozda qor yog'di. Ko'z oldimda yong'inni so'ndirdi".⁶

Turkiy qavmlar diyorini kezib, so'z va iboralarni yig'ish bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodi, urf-odat va marosimlarga oid boy materiallarni to'plagan Mahmud Koshg'ariy "yada toshi" bilan bog'liq tasavvurlarni ham jiddiy o'rganganligi bois "yomg'ir toshi" vositasida o'tkazilgan marosimni shunday tasvirlaydi: "Bek yadachiga duo o'qitdi. Shuning uchun shamol esdi. Yomg'ir yog'di. Bu hodisa turklar mamalakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg'ir, sovuq qo'zg'otiladi".⁷ Boshqa bir o'rinda olim "yatlad" fe'liga "afsunchi yomg'ir yog'dirish uchun yada toshi bilan duo o'qidi" deb izoh bergan.⁸ Tilshunos olim L. Budagov tomonidan tuzilgan lug'atda "yada" so'ziga "sehrli tosh, uning yordamida yomg'ir va qor yog'diriladi yoki tindiriladi. Mo'g'ul tilidagi "dzada" so'zi "yog'ingarchilik ma'nosini anglatadi",⁹ - deb izoh berilgan.

Yomg'ir chaqirish marosimi, umuman olganda yada toshi yordamida afsungarlik qilish udumi XIV-XV asrlarda ham saqlanib qolganligini Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asaralaridan bilishimiz mumkin. XIX-XX asrlarda ham Toshkent viloyati, Angren hududida ham Yadachi bobo borligi haqida folklorshunos olim, Mamatqul Jo'rayev yig'gan ma'lumotlar yadachilik udumi saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Bizningcha, hozirgi kunga kelib bu udum ayrim hududlarda ma'nosi o'zgargan, yoki qisman saqlangan, yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan. Buxoroning bir chekka qishloqg'ida, yada so'zining faqatgina "tosh" ma'nosi saqlanib qolganiga duch keldik, izlanishimiz davomida. Aytilishicha, paypog'ini tez yoki ko'p yirtadigan kishilarga "oyog'ida yadasi bor" (bizningcha, toshi bor ma'nosida)" qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, uning ilohiy, sehrli tushunchasi yo'qolib, oddiy "tosh" ma'nosi saqlanib qolgan.

Ko'rinadiki, ajdodlarimizning qadimiy mifologik tasavvurlariga ko'ra, yomg'ir, qor, do'l kabi tabiiy hodisalaridan har birining o'z "ega"si mavjud deb qaralgan. Tirikchiligi, tabiiy hodisalar, ob-havo o'zgarishlari va fasllar almashinuvi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qadimgi odamlar yog'ingarchilikning mo'l bo'lishini va ana shu mifologik homiylarning ehsoni deb bilishsa, qurg'oqchilikni esa tabiat hodisalari "ega"larining g'azabi yoki ezgulikka qarshi kurashuvchi yovuz ruhlarning xurujidan deb bilganlar. Shu tariqa yog'in-sochinga ehtiyoj sezilganda yoki haddan ortiqdarajadagi yog'ingarchilikni to'xtatish zarurati tug'ilganda tabiat hodisalarining mifologik homiylaridan madad so'rashning magik usullaridan iborat marosimlar kelib chiqqan. Turkiy qavmlarning "yada toshi vositasida yomg'ir yog'dirishni yoki uni tindirish maqsadida o'tkazgan marosimlari ham ana shu e'tiqodiy qarashlar

⁶ Devonu lug'otit-turk (Turkiy so'zlar devoni) / M.Qoshg'ariy. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijdiy uyi, 2017. - B.324.

⁷ O'sha asar. - B.320.

⁸ O'sha asar. - B.324.

⁹ Budagov L.Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т.2. - СПб., 1883. - С.351.

natijasida shakllangan. Turkiy qavmlar diyorini kezib, o'zining lug'ati uchun materiallar to'plagan Mahmud Koshg'ariy yag'mo qabilasiga mansub kishilardan yada toshi to'g'risidagi mifologik afsonani yozib olganligi tufayli qadimiy ajdodlarimiz mifologiyasiga oid g'oyat muhim bir ma'lumot bizning kunlargacha yetib kelgan.

Bundan tashqari "Devon"da qush tuxumidan chiqqan it – "baroq" to'g'risidagi mif hamda Yetagan, Oltin qoziq ("temir qoziq") yulduzlari haqidagi samoviy qarashlar keltirilgan. "Qazunuq" – qoziq Qutb yulduzini "Temur qazunuq" deyish ham shundan. "Temir qoziq" demakdir. Chunki, osmon buning ustida aylanadi ("Devon", 3-jild, 3393-bet), - deb yozadi Mahmud Koshg'ariy. Olim "ko'k tubulg'on" so'ziga izoh berib, quyidagilarni yozadi: "Kok tubulg'on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po'lat bo'ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o'tadi. Bu so'zni menga o'zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi" ("Devon" 1-jild, 474-bet).

Ko'rinadiki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo'lgan xayoliy qush to'g'risidagi xalq qarashlari o'z ifodasini topgan. O'zbek tilida qattiq patlari o'sib chiqqan qush poloponini "temirqanot bo'libdi" deb ta'riflashda ham shu tasavvurlarning izi saqlanib qolgan deyish mumkin.

Shu o'rinda Mahmud Koshg'ariyning folklor to'plovchi sifatidagi muhim bir xususiyati ham ko'zga tashlanib turibdi: olim "ko'k tubulg'on" haqidagi mifologik afsonani keltirar ekan, bu hikoyani u o'ziga hamrohlik qilgan bir kishidan eshitganligini alohida qayd qiladi. Folklor asarini so'zlab bergan aytuvchi, ya'ni ijrochi haqida ma'lumot berish esa xalq og'zaki badiiy ijodi namunasi yozib olishning ilmiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

XI asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida "baroq" so'zini izohlab, quyidagilarni yozadi: "baroq" – serjun it. Turkiy xalqlar e'tiqodiga ko'ra, burgut qariganda ikkita tuxum qo'yar emish. Tuxumlarning biridan o'sha baroq otli kuchuk paydo bo'lar emish. Itlarning eng tez yuguradigani va ovni qattiq saqlaydigani shu baroq itdir. Ikkinchi tuxumdan jo'jasi chiqar emish. Bu uning jo'jalarining oxirgisi bo'lar emish".¹⁰ Demak, qadimgi turkiylarning mifologik e'tiqodlariga ko'ra baroq g'ayrioddiy ravishda paydo bo'ladigan, ya'ni burgut tuxumidan chiqqan afsonaviy it nomidir.

Mahmud Koshg'ariy XI asr turkiy xalqlarning til boyligi, urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarashi va madaniy hayotini o'z asarida jamlagan buyuk olimdir. Uning "Devonu lug'otit-turk" asari nafaqat lug'aviy manba, balki etnografik, folkloriy va mifologik bilimlar xazinasi sifatida ham muhimdir. Unda turkiy xalqlarning tabiat hodisalari haqidagi qarashlari, mifologik tushunchalari va ular bilan bog'liq xalq marosimlari aks etgan.

Qadimgi turkiy xalqlarning mifologik tasavvurlariga oid mifologik qatlamni o'rganish natijasida:

- "Devonu lug'otit-turk" asarida samoviy timsollarday oy timsoli qadimgi turkiy xalqlar hayot tarzida muhim rol o'ynagan va bu keyinchalik davom etgan.

- "Devonu lug'otit-turk"da "yada toshi" bilan bog'liq mifologik tasavvurlar berilgan hamda Alisher Navoiyning "yada toshi" haqidagi qarashlari "Favoyid ul-kibar", "Badoyi ul-

¹⁰ Devonu lug'otit-turk (Turkiy so'zlar devoni). M.Koshg'ariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. B.152.

bidoya”, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonilarida “yada”, “jada”, “yado” tarzida qo‘llanilib, funksiyalari parallelini o‘zida ifoda etgan.

- “Baroq” – “it qush” qush tuxumidan chiqqan mifologik obraz bo‘lib, afsonaga ko‘ra ikki qanotida po‘lat bo‘ladi. Mana shu elementlar o‘zbek xalq ertaklariga ayrim evrilishlar bilan yetib kelgan.

- “O‘zga olam” bilan bog‘liq tushunchalar “chiwi”, “jel jelpindi”, “jak”, “burg‘an”, “jeti boshliq byka” kabi so‘zlarda izohlangan va bu tushunchalar hozirda ham ayrim turkiy xalqlarda davom etmoqda.

- “Devonu lug‘otit-turk”ni o‘rganishimiz jarayonida so‘z magiyasi bilan bog‘liq 66 ta so‘z aniqlandi.

- folklorshunoslik va mifologiyaga oid so‘z, maqol, afsona va rivoyatlar aks etgan matnlar, she‘riy parchalar soni 264 ta, mifologiyaga oid atamalar izohi uchun keltirilgan she‘riy parchalar 22 ta, afsona va rivoyatlar 10 ta, leksemalar ma‘nosini izohlash uchun kelgan she‘riy parchalar 238 ta, maqollar, matallar (takrorlar bilan birga) 300ga yaqin (290 ta) keltirilganligi asarning qadimgi turkiylar dunyoqarashi, olam qurilishi, mifologiyasi va folklorini yangi qirralarini aniqlashga imkon berdi.

- Shuningdek asarda qadimgi turkiy mavsumiy marosim bilan bog‘liq so‘zlar, maqollar, to‘rtliklar mavjudligi, ulardan 19 ta she‘riy parcha, 11ta maqol, 22 ta mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq so‘zlar berilganligi shu davr marosim folklori uchun hamda hozirgi o‘zbek marosimlari bilan qiyoslash uchun muhim manba ekanligini ko‘rsatdi.

- Bundan tashqari oilaviy marosimlar bilan bog‘liq 8 ta leksema va bir qancha maqollar, marsiya janri bilan bog‘liq 10 ga yaqin she‘riy parchalar o‘rin olganligi aniqlanib, motam (marsiya) marosimi bilan bog‘liq she‘riy parchalarga va to‘ylar bilan bog‘liq ma‘lumotlar berilganligi ham asarning turli folklor marosimlarini qamrab olganini ko‘rsatdi.

- “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltirilgan qadimgi turkiy inonchlar va e‘tiqodiy qarashlar bilan bog‘liq so‘zlar jumladan, asarda inonchlar bilan bog‘liq 75 ta so‘z, 7 ta maqol berilganligi ajdodlarimizning eski e‘tiqodiy qarashlarini o‘rganishimiz uchun manba hisoblanadi.

- Umuman olganda Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar shevasiga oid lisoniy manbalarni to‘plash barobarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, qo‘shiq, mif, afsona, rivoyat va naqlar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e‘tiqodiy inonchlar hamda mifologik tasavvurlarga doir boy materiallarni yozib olganligi bilan muhimligini ta‘kidlash o‘rinli. Asardan xalq og‘zaki ijodidan saralab olingan ushbu namunalar zamirida o‘z davri kishilarining tafakkuri, dunyoqarashi va tabiatni, olamni anglashga intilishlari aks etganligini ham aytib o‘tish kerak. Ayniqsa bular orasida samo yoritkichlari bilan bog‘liq afsonalar, maqollar ham keltirilganligi ajdodlarimizning kosmos bilan bog‘liq tushunchalarini yoritishda asos bo‘ladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zarifov H. “Devonu lug‘otit-turk” leksikasining o‘zbek folklorida ko‘rinishiga doir (tezislar) // Po‘lkan shoir, - Toshkent: Fan, 1976. – B.96
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 47

3. Hudud al-alam”. Рукопись Туманского в издании и указателями В.В.Бартольда. –Л., 1930. С.43, 170.
4. Devonu lug‘otit-turk (Turkiy so‘zlar devoni). M.Koshg‘ariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. B.152.
5. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent.: Fan, 1986. – B.57-110;
6. Jo‘rayev M. “Yada toshiga qon yetgach...” yoki yomg‘ir toshi haqida afsona // Yoshlik. Toshkent, 1991. – 1- son. – B.60-62;
7. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonik mifologiya. PhD dissertatsiyasi. –Toshkent. 2018.
8. Devonu lug‘otit-turk (Turkiy so‘zlar devoni) / M.Qoshg‘ariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B.324.
9. Budagov L. Сравительный словарь турецко-татарских наречий. Т.2. – СПб., 1883. – С.351.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1969. – B.98.